

Jabborova Musharraf Zafarbek qizi,

Q'oqon universiteti Andijon filiali "Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyati" kafedrası o'qituvchisi, Andijon davlat universiteti 3-bosqich doktoranti

GLOBALLASHUV VA INTEGRATSIYA SHAROITIDA TALABALARNING TA'LIM SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

UO'K 378

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_1_4](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_1_4)

JABBOROVA M.Z-Q. GLOBALLASHUV VA INTEGRATSIYA SHAROITIDA TALABALARNING TA'LIM SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

Ushbu maqolada xorijiy talabalar ta'limini tarixi, dunyo bo'yicha va yurtimiz bo'yicha ta'lim olayotgan chet ellik talabalar soni hamda integratsiya sharoitida talabalarning ta'lim sharoitlari va imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot xorijiy talabalarning yangi ta'lim muhitiga moslashish jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: ta'lim, xorijiy talabalar integratsiyasi tarixi, xalqaro ta'lim, millatlar, UNESCO.

ЖАББОРОВА М.З-К. ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УСЛОВИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ

В данной статье рассматривается история образования иностранных студентов, численность зарубежных студентов, обучающихся в мире и в нашей стране, а также условия и возможности обучения студентов в условиях интеграции. Исследование показывает психологические трудности, возникающие в процессе адаптации иностранных студентов к новой образовательной среде, и пути их преодоления.

Ключевые слова и понятия: образование, история интеграции иностранных студентов, международное образование, нации, ЮНЕСКО.

JABBOROVA M.Z-K. EDUCATIONAL CONDITIONS AND OPPORTUNITIES FOR STUDENTS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND INTEGRATION

This article examines the history of foreign student education, the number of international students studying worldwide and, in our country, as well as the educational conditions and opportunities for students in the context of integration. The research demonstrates the psychological difficulties that arise during the process of foreign students' adaptation to a new educational environment and ways to overcome them.

Key words and concepts: education, history of foreign student integration, international education, nations, UNESCO.

Kirish. Global ta'lim butun dunyo talabalariga akademik va kasbiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi. Chunki bunday ta'limda o'quv yurtlari faqatgina milliy ta'lim tizmi bilan chegaralanib qolmaydi, xalqaro ta'lim standartlariga javob berish va tenglashishni taqozo qiladi. Bunda talabalar butun dunyo bo'ylab, ma'lumot olishlari, tajribalarini o'rganishlari hamda butun dunyoga ta'sir qiluvchi muammolar bilan tanishishi va tahlil qilish kabi imkoniyatiga ega bo'ladilar, dunyo qarashlari kengayib boradi.

Xalqaro aloqalar ta'lim sohasida ham yagona bilim manbalari, yagona tizimga birlashishi globalashuv jarayonining bir qismi sifatida xorijda ta'lim oluvchi talabalarining akademik ta'limga moslashuvini ancha osonlashtiradi. Bu holatlarni jadallashtirish va xalqaro ta'lim tendensiyalariga tenglashib olish uchun boshqa mamlakatlar tajribalarini ilmiy tahliliy manba sifatida yaqindan o'rganib chiqishimiz zarur.

Talabalarining chet elda ta'lim olishi asosan ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda jadal sur'atda o'sib borgan va hozirda O'zbekistonda ham kengayib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning **maqsadi** xorijiy talabalarining ta'limi qaysi davrdan boshlangani va hozirgacha qanday o'zgarishlarga uchraganini tahlil qilish, qanday ijtimoiy omillar chet ellik talabalarining ta'limiga ta'sir qildi. Izlanishga O'zbekiston va xorijda statistik holatlar va ularning farqlari tahlil qilish rejarashtirilgan.

Tadqiqotda xorijiy talabalarining ta'limi tarixini o'rganuvchi ilmiy maqolalar, UNESCO va OECD statistik hisobotlar hamda xalqaro ta'limning tarixi bo'yicha ilmiy manbalar o'rganilgan va tahlil qilingan.

Xalqaro ta'lim mobilligi fenomeni, globalashuv bilan bog'liqligi, turli davrlarda xorijiy talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va ularning evolyutsiyasi, so'ngida zamonaviy O'zbekistonda xorijiy talabalar ta'lim holati va rivojlanish istiqbollari, bir so'z bilan aytganda tarixiy-tahliliy yondashuv asosida xorijiy talabalar ta'limining boshlang'ich nuqtasidan hozirgi davrgacha bo'lgan o'zgarishlarni o'rganishga qaratildi.

Mavzu bo'yicha ilmiy manbalar sharhi.

Ilk xorijiy talabalar haqida L.L.Rodina yozgan "Universitetlar tarixi" ilmiy maqolada ma'lumot uchraydi. Ushbu tadqiqotda yozilishicha ilk bor chet ellik talabalar X-XI asrlarda Bolonya Universitetida ta'lim olganlar.

Yevropada ilk bor xususiy oliy maktab Bolonyada tashkil etildi, unda nafaqat Italiyadan balki Yevropaning istalgan burchagidan talabalar kelib tahsil olganlar. Bu maktab o'qituvchilari butun Yevropa bo'ylab dars berishgan va talabalarining katta kontingentini egallaganlar. Chet ellik talabalar shaharliklarga qarshi o'z huquqlari uchun kurashganlar va oliy maktab Universitet maqomini olgan [1].

Shu davrdagi talabalar faoliyatida madaniyatlarning kompetensiya va akademik identifikatsiya jarayonini kuzatish mumkin ekan. Ta'lim siyosatdan holi bo'lgan holda rivojlanib borgan. xorijiy talabalarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, qiyin sharoitlarda ham kollektiv harakat va o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki butun ta'lim tizimini o'zgartirishga erishish mumkin.

De Ridder Saymons bo'yicha Parij universitetida Fransiyadan tashqari Normandiya, ingliz va nemis millatiga mansub talabalar tahsil olgan. Oksfordga shimoldan va janubdan talabalar kelib tahsil olganlar.

Shunday qilib, Yevropada chet ellik talabalarining oliy o'quv yurtida ta'lim olishlari tarixi o'rta asrlarga borib taqaladi, va universitet tashkil topishi tarixi bilan uzviy bog'liq. Nafaqat bog'liq balki, ularning ishtirokida oliy ta'lim universitet maqomini olmoqda. Undan tashqari universitetdagi talabalar va professorlar xalqaro hamkorlik tizimida ishlaganlar, talabalar bir davlat universitetidan ikkinchi davlat universitetiga bema'lol o'qishini davom ettira olganlar. Bu jarayon Yevropada yagona ta'lim shakli, yagona ta'lim chegarasini hosil qilgan, til to'siqlari juda nozik bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Albatta, maqolada keyinchalik xalqaro hamkorlik tizimi turli siyosiy qarashlar sababli sekin asta yo'qolib borgan ham qayd etilgan.

Albatta, ilm chegaralanmasligi, turli siyosiy hodisalardan holi bo'lishi va istalgan joydan talabalar istalgan universitetida o'qishga haqli bo'lishi kerak. Yana bir tadqiqot "Yevropa uni-

versitetlari tarixi" asarida keltirilishicha, o'rta asrlarda oliy o'quv yurtlarida talabalar millati, kelib chiqishiga qarab guruhlangan va "nations" ya'ni "millatlar" deb nomlangan tashkilotlar tuzilgan [2].

Lekin bir mamlakatda yashab, boshqa mamlakat oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishga o'sha joyda huquqiy va ijtimoiy qo'llab quvvatlashning yo'qligi, va mamlakatlarda turli siyosiy qarashlar bergan. Davlatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar, siyosiy nizolar, diniy bosimning oshishi, iqtisodiy cheklovlar, bunga sabab bo'ladi.

Bu haqida Cobbanning "Medieval English Universities: Oxford and Cambridge" asarida ham ma'lumotlar keltiriladi. Unda aytilishicha Yevropa qit'asida boshqa universitetlardan ko'ra kamroq xorijiy talabalar ta'lim olganligi, Uels, Shotlandiya, Irlandiya va ingliz hukmdorligidan boshqa hududlardan kelganlar ham ma'muriy-siyosiy ma'noda "begona" yoki "chet ellik" sifatida ko'rilgan ammo amalda til, madaniyat, cherkov-huquqiy tizimi jihatidan ingliz ingliz muhitiga juda yaqin bo'lgani uchun, universitet hayotida "normal" tarkibning bir qismi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun Cobban bu guruhlarni alohida xalqaro "diaspora" sifatida emas, balki ingliz universitet olamining ichki segmenti sifatida ko'rsatadi [3].

Demak, Oksford va Kembridj kabi universitetlarda xorijiy talabalar soni hal qiluvchi yoki biror vaziyatga ta'sir qilish darajasida ko'p bo'lmagan, asosan universitetlar Angliya cherkovi va davlatga xizmat qiluvchi milliy oliy o'quv yurtlari bo'lgan. Oliy ta'lim kengayib, universitetlariga talab kengayishi va talabalar jamoasi siyosiy kuchga ega bo'lib borgan va oliy maqom olish bilan ta'lim mahalliylashib talabalar yakka tarzda ko'chib ta'limni davom ettirishdi.

Undan tashqari Vengriya universitetlari nazariy jihatdan xalqaro talabalarga ham ochiq bo'lganligi haqida Astrik L. Gabrielning tadqiqot ishida ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

XVI-XVII asrlarda Italiyadagi Paduya universitetida tibbiyot va falsafa bo'yicha Yevropaning eng nufuzli universitetlaridan biri bo'lgan gumanistik yo'nalishiga chet ellik talabalar jalb qilingan. Undan keyingi davrlarda Sarbonna universitetida XVII-XVIII asrlarda 15000 ga yaqin

xorijiy talabalar qabul qilingani, keyinchalik nemis universitetlarida ingliz, rus, fransuz aristokratlari farzandlari ta'lim olganini shuningdek, XVIII asrga kelib Grand tour yevropalik yoshlarning ta'lim sayohati an'anasi shakllangani haqida ilmiy tadqiqotlar orqali bilib olsak bo'ladi. Shu jumladan o'sha davrda nemis universitetlarida chet ellik talabalar ulushi 20-30% ni tashkil qilgan [4].

O'rta asr Yevropa universitetlarida (XII-XV asrlar) xorijiy talabalar uchun sharoitlar asosan «studium generale» (umumiy o'quv maskani) maqomi orqali ta'minlangan. Bu maqom universitetni butun xristian dunyosiga ochiq bo'lgan, ammo amalda sharoitlar cheklangan bo'lgan. Xorijiy talabalar o'qish huquqiga ega bo'lgan, lekin ular mahalliy talabalar bilan teng darajada bo'lmagan [3].

Masalan, Oxford va Cambridge universitetlarida xorijiy talabalar (asosan Britaniya orollari tashqarisidan) kam bo'lgan va ular til to'siqlari (lotin tili majburiy bo'lsa-da, mahalliy inglizcha farqlar) va siyosiy urushlar (masalan, Yuz yillik urush) tufayli qiyinchiliklarga duch kelgan.

Universitetlar «nationes» (millatlar) tizimini yaratgan, bu xorijiy talabalar guruhlari (masalan, fransuz yoki nemis «natio») o'z ichki qoidalarini boshqargan. Bu tizim ijtimoiy integratsiyani osonlashtirgan, lekin ko'pincha ichki nizolar (masalan, mahalliy va xorijiy talabalar o'rtasidagi raqobat) keltirib chiqargan Gabriel [4].

Xorijiy talabalar uchun stipendiyalar yoki yordam kam bo'lgan; ular o'z mablag'lari yoki cherkov homiyligi bilan o'qigan. Vengriya universitetlarida (Pécs va Pozsony) xorijiy talabalar mintaqaviy tarmoqlar (Vena yoki Krakov bilan bog'lanish) orqali qisman qo'llab-quvvatlangan.

Lektorlar va magistrlar xorijiy talabalarga lotin tilida dars bergan, ammo adaptatsiya (masalan, madaniy farqlar) uchun maxsus dasturlar bo'lmagan. Masalan, Bolonya universitetida xorijiy talabalar o'z «natio» lari orqali huquqiy masalalarni hal qilgan, bu qisman qo'llab-quvvatlash shakli bo'lgan [5].

"Nationes" tizimi xorijiy talabalarni guruhlab, ularni mahalliy jamiyatga moslashtirgan. Ammo, bu jarayon ko'pincha stressli bo'lgan: xorijiy talabalar madaniy shok (masalan, urf-odatlar farqi) va izolyatsiyaga duch kelgan. Universitet-

lar papalik farmonlari (masalan, Pécs universiteti uchun 1367 yilgi bulla) orqali xorijiy talabalarni himoya qilgan, ularga huquqiy immunitet (masalan, suddan ozodlik) bergan. Ammo, amalda bu siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lgan: Angliyada xorijiy talabalar urush vaqtida deportatsiya xavfiga duch kelgan [3], [4].

Chet ellik talabalarning ijtimoiy va psixologik himoya jarayoni «nationes» orqali kechgan – xorijiy talabalar o'z guruhlarida ichida qo'llab-quvvatlangan, masalan, moliyaviy yordam yoki nizolarni hal qilishda.

1870 yildan keyin universitetlar milliy davlatlar universitetlar milliyashtirishni boshlanishi hisobiga chet ellik talabalar 15-20% gacha kamaydi. 1 va 2 jahon urushlari davrida 5000 ga yaqin chet ellik talabalar asosan Amerikalik talabalar nemis universitetlarida ta'lim olganlar.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng chet ellik talabalar soni yuz mingdan 1990- yillarga kelib 1.3 millionga o'sdi. 1946-1990 yillarda AQSh eng ko'p xorijiy talabalar ta'lim oluvchi mamlakatga aylandi. Fullbright dasturi orqali 200.000 dan ortiq talabalar almashinuviga erishildi. "sovuq urush" sharoitida diplomatik vosita sifatida foydalanildi. 1970 yilda 800.000 chet ellik talabalarining 30% i AQSh ga 40% ulushi esa Yevropaga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin [6].

Undan tashqari 1987-2019 yillarda Erasmus xalqaro talabalar almashinuvini qo'llab quvvatlash dasturi 10 million talabani qamrab oldi. Bologna jarayoni 48 nafar davlatni birlashtirdi [7].

Hozirda Unesco va OECD hisobotlariga ko'ra 2 yil oldin dunyo bo'ylab 6.4 million chet ellik talabalar ta'lim olmoqda. Eng ko'p talabalar qabul qiluvchi mamlakatlar AQSh (18%) Avstraliya (8%) Angliya (8%) Germaniya (7%) Kanada (5%) ulushini tashkil qilsa, eng ko'p xorijga talaba jo'natuvchi davlatlar Xitoy (17%), Hindiston (13%) Germaniya (5%) Nigeriya (3%) tashkil qilmoqda.

OECD ning 2023-yilgi hisobotida OECD mamlakatlar chet ellik talabalar ulushining 77% ini qabul qiladi. Magistratura darajasida chet ellik talabalar 27% qismini STEM yo'nalishlari bo'yicha 35 foiz xorijdan talabalar kelib o'qiydi.

Hozirda universitetlar (masalan, AQSh va Yevropa) xorijiy talabalar uchun maxsus ofis-

lar (International Student Offices) yaratgan, ularda til kurslari, orientatsiya dasturlari va psixologik yordam mavjud. Masalan, Harvard universitetida xorijiy talabalar uchun «buddy programs» (do'stlik dasturlari) orqali integratsiya ta'minlanadi. Universitetlarda ijtimoiy himoya immigratsiya qonunlari (masalan, EUning Erasmus+ dasturi) orqali ta'minlanadi. Masalan, xorijiy talabalar tibbiy sug'urta, ish topish yordami va diskriminatsiyaga qarshi himoya oladi. Jarayon bosqichma-bosqich: kirishdan oldin (viza yordami), o'qish vaqtida (konseling) va keyin (alumni tarmoqlari) [8].

Albatta MDH davlatlarida sobiq sovet davrida talabalar asosan Sovet ittifoqi doirasida harakatlanganlar [9].

Silovning 2009 yilgi tadqiqotida ta'kidlanadiki, markaziy Osiyo oliy ta'lim muassasalari mustaqillik davrida qiyinchiliklarni boshidan o'tkazdi. Xorijiy yordam dasturlari asosiy rol o'ynadi. Rus tilidan milliy tilga o'tish ya'ni ta'lim mahalliyashtirishga qiyinchilik bilan bo'lsada asosiy urg'u berildi.

Demak bu davrda dastavval barcha post sovet davlatlari qatorida O'zbekistonda ham milliy o'zini tiklash jarayoni kechishi ta'lim sohasida ham o'z ta'sirini albatta o'tkazadi.

O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilinishi va Xorijiy universitetlar filiallarini ochish jarayonining boshlanishi va rivojlanishini 2016 yildan keyingi davrda kuzatishimiz mumkin. Talabalar mobilligi yildan yilga ortib bormoqda [10].

Eng so'nggi chet ellik talabalar haqidagi ma'lumotlarni Muratovning 2024-yilgi "The development of Uzbekistan as a transitional higher education" asaridan ham bilib olishimiz mumkin. 2023-boshlariga kelib O'zbekistonda 29-nafar xorijiy unibersitet filiallari faoliyat yuritmoqda. 10.000 dan ortiq talabalar xorijda ta'lim olmoqda. Yurtimizda 5000 ga yaqin chet ellik talaba OTM larda tahsil olganlar.

2025-yilgi statistik ma'lumotlarga qaraganda, hozirda xorijiy davlat talabalari 22.496 nafarni ulardan, 11.527 nafari erkaklar, 10.969 nafari ayollarni tashkil qilmoqda [11].

Xulosa.

Bu tarixiy jarayon shuni ko'rsatadiki, chet ellik talabalarning universitetlarda ta'lim olishi jarayoni uzoq o'rta asrlardan buyon rivojlanib, globallashuv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lgan, universitetlar ta'lim sifatini oshishi hamda mahalliy iqtisodiyotga katta moliyaviy kirim, xalqaro standartlarga moslashish kabi ijrobiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy talabalar ta'limining tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon globallashuvning tabiiy mahsuli bo'lib, universitetlar rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda bu jarayon nafaqat individual ta'lim ehtiyojlarini qondirish, balki davlatlararo aloqalarni mustahkamlash va «yumshoq diplomatiya» vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy talabalar ta'limini rivojlantirish milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida ushbu soha yanada rivojlantirilishi va xorijiy talabalar uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Родина, Л.Л. (2018). История университетов: От средневековья до наших дней. Академический проспект.
2. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=en&cites=11304176746842377182&as_sdt=5
3. Cobban, A.B. (1988). Medieval English Universities: Oxford and Cambridge. University of California Press.
4. Gabriel, A.L. (1969). The Medieval Universities of Pécs and Pozsony. University of Notre Dame Press.
5. Rashdall, H. (1936). The Universities of Europe in the Middle Ages (3 vols.). Oxford University Press.
6. Johnson, J.M. (1987). International Student Exchange in Higher Education. Educational Research Quarterly, 12(3), 45-58.
7. UNESCO, 2020, p. 120-130].
8. De Young, A.J. (2011). Lost in Transition: Redefining Students and Universities in the Contemporary Kyrgyz Republic. Information Age Publishing.
9. Muratov, A. (2024). The development of Uzbekistan as a transitional higher education hub. Central Asian Education Review, 15(2), 78-95.
10. OECD. (2023). Education at a Glance 2023: OECD Indicators. OECD Publishing.
11. Silova, I. (2009). Varieties of educational transformation: The post-socialist experience. Comparative Education Review, 53(2), 143-166.